



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 4-dekabr, payshanba,
138 (24.168)-son

**O'zbek xalq
maqoli**

Bir qarg'a
bilan qish
kelmas

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Prezident belgilab bergan vazifalar ijrosi

Kengash tomonidan nazorat qilinadi

2-dekabr kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining yigirma ikkinchi sessiyasi o'tkazildi.

Sessiya ishini Kengash raisi Shuhrat Negmatov boshqardi.

Kun tartibiga ko'ra, deputatlar dastlab Prezidentimizning Samarqandga tashri-fi davomida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar yuzasidan xalq deputatlari viloyat Kengashi nazoratini o'rnatish to'g'risidagi masalani muhokama qildilar.

Ta'kidlanishicha, viloyatda sanoat, qish-loq xo'jaligi, turizm va xizmat ko'rsatish so-halarini jadal rivojlantirish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, daromad manbalarini yaratishda hali ishga solinmagan yangi imkoniyatlar mavjud.

Birinchi galda davlatimiz rahbari top-shiriqlaridan kelib chiqib, "Yo'l xarita"si ishlab chiqish, belgilangan vazifalar va maqsadli ko'rsatkichlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash zarur. Jum-ladan, xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyalari "Yo'l xaritasi"dagi ko'rsatkichlar ijrosi yuzasidan har chorakda viloyat hokimi o'rinbosarlari, boshqarma va tashkilotlar rahbarlari hamda tuman, shahar hokimlarining hisobotlarini eshitib boradi.

Deputatlar 15 kun muddatda viloyatda investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqishi belgilandi.

So'ng viloyat kambag'allikni qisqartirish

va bandlik boshqarmasi boshlig'i Temur Mahmudov Prezidentimizning "2025-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risi-da"gi qarorining viloyatdagi ijrosi yuzasidan hisobot berdi.

Hisobotga ko'ra, bugun viloyatimizda ish bilan band bo'lganlar 1 million 581 ming nafar bo'lib, ishsizlik darajasi 4,8 foizni tashkil etadi. Ayni paytda 13 ming 357 ta korxona va tashkilotda 36 mingdan ortiq bo'sh ish o'rne bor. Bu ish o'rinlarining 22308 tasi o'rta-maxsus, 10991 tasi oliy ma'lumot talab etsa, 2734 tasi ma'lumot talab etmaydigan ish o'rinlaridir.

T.Mahmudov kelgusi yilda aholi band-ligini ta'minlash va kambag'allikni qisqa-rtirish borasida rejalarga ham to'xtaldi. Jumladan, 2026-yilda 111 mingdan ziyod aholini daromadli mehnat bilan band qilish, doimiy ishga joylashtirish maqsad qilingan. Shuningdek, norasmiy faoliyat yuritayotgan 65 mingdan ziyod fuqaro faoliyati soliq or-ganlari bilan hamkorlikda rasmiylashtiriladi, tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish hisobiga 390 ming nafardan ortiq fuqaron-ing daromadini oshirish choralari ko'rilmoc-da. Natijada 27,2 mingta oilani kambag'al-likdan chiqarish rejalashtirilmoqda.

– Kamabag'allikni kamaytirishning eng samarali chorasi - bu aholining bandligini ta'minlash, - dedi deputat Rustam Xolmu-rodov. - Hisobotdagi raqamlar real hayotga to'g'ri keladimi, degan savol bor. Faoli-yatimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, universitetni yiliga minglab talaba bitira-di. Qo'limdagi bitiruvchilarimizning ishga joylashishiga oid hujjatlardagi raqam soliq

idorasi ma'lumotlariga umuman to'g'ri kelmaydi. Demak, korxona va tashkilotlar-da soliqlardan qochish ilinjida "konvert" usulida oylik berish holatlari mavjud. Band-lik, soliq idoralari, ta'lim muassasalari va boshqa ish beruvchi tashkilotlar o'rntasida rostakamiga hamkorlik tizimi yo'lga qo'yil-magan. Ayniqsa, mehnat resurslarini bosh-qarish, ulardan samarali foydalanishga ilmiy yondashilmayapti. Vaholanki, Samarqand mamlakatimizdagi inson va mehnat resurs-lariga eng boy hudud hisoblanadi.

Sessiyada "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risi-da"gi Qonunga ko'ra, Kadastr agentlig-ining "E'tirof" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kelib tushgan hujjatlar aso-sida 100 nafardan ortiq fuqaroning mulk huquqi qonuniy tartibda e'tirof etildi. Qonun ijrosi bo'yicha ishlar Samarqand shahri, Ishtixon va Urgut tumanlarida sust ketayotgani qayd etilib, mazkur hududlar mutasaddilarining mas'uliyatini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Sessiyada shuningdek, xalqaro moli-yaviy institut mablag'lari hisobidan xalqaro ahamiyatidagi A377 "Samarqand - Ayniy" avtomobil yo'lining 0-37 kilometr qismini rekonstruksiya qilish loyihasini amalga oshirish konsepsiyasini tasdiqlash, mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foy-dalanish, Ishtixon tumanidagi aholi punkti nomini o'zgartirish to'g'risidagi va Kengash vakolatiga doir boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.

"Ish o'rni taklif etdik, ammo unamadi, degan vaj-karsonlar ketmaydi, real moliyaviy ta'minot bilan bog'liq ish o'rinlari taklif qilasiz. Ishlash uchun normal sharoitga ega bo'lmagan, bor-yo'g'i 1,5 million so'm oylik maosh beradigan korxonada kim ishlaydi? Borish-kelishiga ham yetmaydi-ku bu mablag'!"

Xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha vazifalar belgilandi

Viloyat hokimi Adiz Boboyev xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha res-publika komissiyasi a'zolari, viloyat oila va xotin-qizlar bosh-qarmasi xodimlari, shuningdek, tegishli korxona va tashkilotlar vakillari ishtirokida o'tgan yig'ilish-da mas'ullar oldiga shunday masalalarni qo'ydi. Videoselektor tarzida o'tgan yig'ilishda dav-latimiz rahbarining 25-noyabr kuni Samarqandga tashrifi chog'ida viloyatda xotin-qizlar bandligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va tashqi migratsiyadan qaytgan ayollarga ko'mak berish bo'yicha belgilab bergan muhim vazifalarni ta'minlash haqida so'z bordi.

Viloyat hokimi mas'ullardan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli bajarishni qat'iy talab qildi. Shu-ningdek, xorijda bo'lib turgan 89 ming nafar samarqandlik xotin-qiz-lar bilan suhbatlar o'tkazib, ular uchun munosib ish o'rinlari yaratish bo'yicha aniq vazifalar yuklatildi.

Ayni kunlarda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi vakillari hamda viloyatdagi tegishli boshqarma va tashkilotlar rahbar-laridan iborat ishchi guruh tomoni-

dan amaliy ishlar boshlandi.

- Asosiy ishini migratsiyadan qaytgan yoki xorij davlatlarida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar, ularning oilalarini o'rganishdan boshladik, - deydi shtab rahbari Asror Ishanxo'jayev. - Oilasidagi ahvol, xorijdagi yashash sharoiti, turmush tarzi, qaysi mehnat faoli-yati bilan band ekanligi kabi ma-salalardan iborat anketa savollari tuzib chiqildi va bugun ishchi guruh a'zolari, mahalla yetiligi tomonidan shu savolnoma asosida o'rganish olib borilmoqda. Keyingi bosqich-da o'rganishlar umumlashtirilib, mamlakatimizda ishga joylashish-ga muhtojlar o'rganib chiqiladi, mavjud ish o'rinlari taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Hududlarda xotin-qizlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish yuzasi-dan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, tashqi migratsiyada yur-gan xotin-qizlarni qaytarish ham-da ularning bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy choralarni ko'rish, xotin-qizlarning tadbirkorlik faoli-yati bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyatlar to'g'risida tegishli tashkilotlarga aniq vazifalar belgilab berildi.

Bu yil qish faslining ilk kunlari har holda biroz iliq boshlandi. Ammo bu uzoq davom etmaydi shekilli, kechalari anchagina sovuq sezilmoqda va uylarni isitishda muammolarga duch kelyapmiz. Hovlida yashayotganlar o'tin va ko'mir yoqib, jon saqlashi mumkin. Ammo ko'p qavatli uylarda yashayotganlar uchun qiyin masala.

Bugungi kunda Kattaqo'rg'on shahrida 263 ta ko'p qavatli uydagi 6751 xonadonda 24000 dan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ular-ga 7 ta boshqaruv servis kompaniyasi kom-munal, obodonlashtirish va ko'kalamzor-lashtirish xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Yangi qurilgan uylarning deyarli barchasi ikki konturli pechlar yoki konditsionerlar bi-lan isitilmoqda. Chunki ko'p yillardan buyon birorta ko'p qavatli uy-joyda markazlashgan qozonxona orqali issiqlik ta'minoti yo'lga qo'yilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-dekabrdagi "2021-2027-yillarda res-publikadagi ko'p kvartirali uylarning issiq-lik tizimi bilan ta'minlash va yangilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risi-da"gi qaroriga asosan shahardagi Amir Temur ko'chasida joylashgan 20 ta ko'p qavatli uyning issiqlik ta'minoti tizimini ta'mirlash ishlari boshlangan bo'lsa-da, hanuzgacha amalga oshirilmagan. O'tgan yili mahalliy budjetdan 3 milliard 324 million so'mdan ziyod mablag' ajratilib, qurilish va ta'mirlash ishlari boshlangan edi. Xonadonlarda isitish quvurlarini almashtirish «Ko'p qavatli uylarni kapital va joriy ta'mirlash hamda issiqlik ta'mino-ti obyektlarini qurish bo'yicha injenerlik kompaniyasi» DUK tomonidan amalga oshirilmogda.

- Amir Temur ko'chasida joylashgan ko'p kvartirali uy-joylar ichki issiqlik ta'minoti tizimini ta'mirlash maqsadida davlat bud-

KATTAQO'RG'ONDA KO'P QAVATLI UYLAR QANDAY ISITILYAPTI?



jetidan 2 milliard 712 million so'm ajratil-gan, - deydi Kattaqo'rg'on shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi bosh-lig'i Shahzod Saydiev. - Qurilish-ta'mirlash ishlarga "Xushnudbek fayz invest" MChJ pudratchi etib belgilangan. Quvurlarni almashtirish, isitish qurilmalari o'rnatish hamda issiq suv ta'minoti bilan ta'minlash-ni mazkur korxona o'z zimmasiga olgan. Obyekt bo'yicha rejadagi 4,4 kilometr tarmoqdan 725 metri tortilgan, 22 ta issiqlik tarqatish punktlaridan (ITP) 4 tasi o'rnatil-gan.

Yaqinda viloyat hokimining topshirig'iga asosan joriy yilning 20-noyabrigacha 13-uyini to'liq ta'mirlab, tizimni ishga tushirish kerak edi. Ammo bu muddatdan ham 10 kun o'tgan bo'lsa-da, hali xonadonlarga

issiqlik berilmadi. Surishtirsak, hatto yer-to'lasiga issiqlik tarqatish punkti (ITP) ham o'rnatilmagan ekan. Uyda yashovchilarn-ing ta'kidlashicha, barcha xonadonlarga tayanch quvurlar o'tkazilgan, lekin hech kim isitish radiatorlarini o'rnatmagan.

- Quruvchilar bizga radiatorlarni o'zlaring o'rnatishlaring kerak deyishmogda, - deydi 11-uyda yashovchi Erkin Hakimov. - Uy-imiz yerto'lasigacha issiqlik tarmog'i tortib kelindi va barcha xonadonlar orqali o'tka-zildi. Biroq hali hech kim uyiga radiatorlarni o'rnatmagani sababli tizimga ulashning iloji bo'lmayapti. Chunki radiatorlarning narxi qimmat. Masalan, men uyimga 4 ta o'rnatishim uchun 5 million so'mdan ziyod xarajat qilishim kerak. Bunga esa hozir im-konim yo'q. Elektr pech va konditsionerdan

foydalanib uyimni isityapman.

Aslida isitish radiatorlari ham quruvchilar tomonidan o'rnatilishi kerak edi. Xonadonlar egalarining imkoniyatlari turlicha bo'lgani holda o'z vaqtida issiqlik tarmog'i ishga tushmasligi mumkin. Agar zudlik bilan bu muammo o'z yechimini topmasa, uylar isitil-may qolaveradi.

- Aslida bu uylar 2-3 yil ilgari issiq-lik manbaiga ulanishi kerak edi, - deydi "Samkat suvoqova ta'mir" MChJ ish bosh-qaruvchisi Akmal Mamedov. - Biroq turli sabablar bilan qolib ketaverdi. Ayni vaqtda mahallada joylashgan 34 ta ko'p qavatli uyining 20 tasidagi 1100 xonadon markaziy qozonxonaga ulanishi lozim. Biroq hozir-gacha loyiha tasdiqlanmagan. Ajratilgan mablag' ham kelib tushgani yo'q. Ishni qila-

Dolzarb mavzu



veringlar, pulini beramiz deb va'da bergani uchun ishlab turibmiz.

Xuddi shunday muammo Vatanparvar ma-hallasida ham mavjud. Mahalladagi 4 ta ko'p qavatli uyda 204 xonadon bo'lib, istishi uchun 2 ta mini qozonxona o'rnatilgan. Ammo ular tabiiy gaz tarmog'iga ulanmagan.

- Uylarimizda aksariyat harbiylar oilalari istiqomat qiladi, - deydi "Miyonqol smart" MChJ boshqaruv servis kompaniyasi rahbari Dilbar Murodova. - Quruvchilar xonadon-larga isitish tarmoqlari tortishdi-yu lekin yakuniga yetkazishmadi. Birorta xonadonda radiatorlar o'rnatilmagan. O'zi shu radi-atorlar quruvchilar tomonidan qo'yilishi zarur edi. Ular uy egalari zimmasiga yuk-lab qo'yishgan. Ana endi, qachon sotib olishadi-yu, qachon tizim ishga tushadi, noma'lum bo'lib turibdi. Hozircha deyarli barcha uy bekalari tabiiy gaz plitalari, ikki konturli va elektr pechlarida xonadonlari-ni isitishga majbur bo'lmoqda. Yaxshiyam kunlar u qadar sovuq emas, agar to'satdan yog'ingarchilik boshlanib, o'tgan yilgidek anomal sovuqlar cho'zilib ketsa, elektr va tabiiy gazdan cheklovlar boshlanadi, bil-mayman, ular qanday qilib jon saqlashadi?

Uylarning kirish eshiklari peshayvon-lari tepasiga, yerto'lalarga o'tin taxlab qo'yishibdi. To'g'ri-da, shu alfozda keta-digan bo'lsa, uylariga "burjuyka" o'rnatib, o'tin va ko'mir yoqishga majbur bo'lishadi axir. Chunki hozirdanoq tabiiy gaz bosimi juda past. Mahalla faollari bir necha marta "Hududgazta'minot" Kattaqo'rg'on shahar filiali rahbarlariga murojaat qilishdi, biroq foydasi bo'lmadi.

Xullas, bugun Kattaqo'rg'on shahrida ko'p qavatli uylarni isitish bir necha yil-lik muammoligicha qolmoqda. Bu borada boshlangan ishlar yakuniga yetmayapti. Demak, vaziyatga viloyat darajasida e'tibor qaratish, mutasaddi tashkilotlar mas'uliyati-ni oshirish zarur.

**Dilmurod TO'XTAYEV.
Baxtiyor MUSTANOV (suratlar).**



Maromiylilik

haqida jamoatchilik fikri

Kun mavzusi



Prezident farmoniga ko‘ra



Jarima va ta’sirchan choralar kuchaytirilishi yaxshi samara beradi

To‘y va marosimlarni qisqartirish, kamchiqim qilib o‘tkazish xalqimizning asrdan asrga o‘tib kelayotgan, yechimi o‘zimizga bog‘liq bo‘lsa-da, amalga oshirish g‘oyat qiyin kechayotgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

XX asr boshida buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo’ja Behbudiy to’y va ta’ziyani bizni kemiruvchi illatlar sifatida qayd etib, agar shu marosimlarga sarflaydigan mablag’imizni ilm yo’lida sarflaganimizda biz ham Yevropa davlatlari singari taraqqiy etardik, deb kuyinib yozgan edi. Oradan bir asr o’tibdi, hamon bu illatdan qutulolmay, uning domiga chuqurroq kirib boryapmiz.

Yaxshi eslayman, o’tgan asrning 80-yillarida Samarqand tumani raykomiga endi ishga kirgan paytim edi. To’y-ma’rakalarni ixcham qilib o’tkazish, ortiqcha safr-xarajatlarga yo’l qo’ymaslik bo’yicha tumanda viloyat darajasidagi yig’ilish o’tkazilib, tavsiyalar ishlab chiqildi. Keyin viloyat miqyosida targ’ibot ishlari olib borildi. Ma’lum vaqt to’y va aza marosimlari tartibga tushgandek bo’ldi, ammo keyinchalik targ’ibot ishlari sustlashgach, yana dabdababozlik avj oldi, hatto avvalgidan ham ko’p odatlar, rasm-rusumlar paydo bo’ldi.

Keyin 90-yillar oxirida va yangi asrimiz boshlarida ham ushbu masala kun tartibiga chiqdi, davlat rahbari, parlament darajasida qarorlar, chora-tadbirlar qabul qilindi. Om-maviy axborot vositalarida, davralarda shu mavzu haqida gapirildi, targ’ibot ishlari olib borildi. Albatta, bu tadbirlar ham samara berdi, ammo ko’p vaqt emas. Mustaqillikning dastlabki yillaridagi qiyinchiliklar unutilib, xalqimiz hayotiga tushgach, yana to’y-ma’rakalarga zo’r berdik, bu marosimlarni o’zimizni ko’z-ko’z qilish vositasiga aylantirdik. Bugun vaziyat shunday darajaga keldiki, odamlar yillar davomida yig’ib-terganini bir kunda, bir necha soatda sovurishga tayyor, bunga achinmaydi ham. Talab paydo bo’ldiki, katta-katta to’yxonalar, to’y-hashamni tashkil etuvchilar, bezatuvchilar, o’rtakashlar va yana o’nlab xizmatlar yuzaga keldi. To’y qadriyatdan sanoatga, katta mablag’ talab qiladigan tadbirga aylandi. Buning ortidan qancha insonlar chet ellarda sarson-sargardon bo’lyapti, qargza botib, yo’lini yo’qotmoqda, yosh oilalarga darz ketmoqda.

Mana endi yana shu masalada bosh qotirishimizga, to’y va boshqa marosimlarimizda tartib o’rnatishga to’g’ri kelmoqda.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O’zbekiston musulmonlari idorasi, Mahallalar uyushmasi, Oila va xotin-qizlar qo’mitasi hamda “Nuroni” jamg’armasi hamkorligida dabdabali to’ylar va boshqa oilaviy marosimlarni ixchamlashtirishga qaratilgan “Maromiylilik” targ’ibot kampaniyasi boshlandi. Ushbu tashkilotlar tomonidan 90 kunlik chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va bu yo’nalishda viloyatimizda ham amaliy ishlar boshlandi, faol targ’ibot olib borilmoqda.

Loyiha boshlanishi bilan viloyatda to’ylarni ixchamlashtirish va ortiqcha dabdabalarsiz o’tkazish borasida aholining

fikrini o’rganish maqsadida anonim so’rovnoma o’tkazildi. Shu so’rovnomadagi ikki savol e’tiborimni tortdi. “To’y va ma’rakalarning ixcham o’tkazilishini ta’minlashda kimlar faol bo’lishi lozim?” degan savolga javob berganlarning 46 foizi “barcha davlat va jamoat tashkilotlari” deb javob beribdi. Shuningdek, ko’plab fuqarolar mansabdor shaxslarning shaxsiy namuna bo’lishi muhimligini ta’kidlagan. “Qaysi targ’ibot usuli samarali deb o’ylaysiz?” degan so’rovga esa 49 foiz respondent “jarima va ta’sirchan choralar” deb javob beribdi.

Nazarimda, ana shu ikki savol ko’p masalaga oydinlik kiritgan. Chindan ham to’y va ma’rakalar ixcham qilib o’tkazilishini ta’minlashda davlat tashkilotlari nazoratni kuchaytirsa, ta’sirchan choralar va jarimalarni qo’llansa, tezroq tartib o’rnatish mumkin. Hamma mas’uliyatni odamlarga chora ko’rish vakolati bo’lmagan mahalla yoki oqsoqollarga tashlab qo’yish yoki arzimasa jarima qo’llash bilan maqsadga erishish juda qiyin. Qachonki tartib nazoratini davlat organlari olib borsa, million-million so’m pul sarflab dabdaba qilgan to’ychiga ana shu xarajatlarning to’rt yoki beshdan biri miqdorida jarima qo’llanilsa, xuddi shunday to’yxona egalariga ham faoliyatini ma’lum muddat to’xtatib qo’yishgacha bo’lgan ta’sir choralarini qo’llanil-sagina tartib o’rnatish oson kechadi, nazarimda.

Ba’zida davralarda, ijtimoiy tarmoqlarda eshiyapmiz, o’qiyapmiz – odamlar nega amaldorlar dabdabali to’y qilsa, hech kim chora ko’rmaydiyu, oddiy odam bir necha qozon osh damlab, yuzlab kishini to’yiga taklif qilsa, unga jarima solinadi, deb e’tiroz bildirmoqda. To’g’ri, yuqorida qayd etilgan so’rovda aytilganidek, mansabdor shaxslarning o’zi bu borada ibrat bo’lishi kerak.

Shu o’rinda qo’shni Tojikistonda bo’lgan holatni yodga olmoqchiman. Yaqin birodarimiz farzandining to’y marosimiga taklif qilgani uchun Samarqanddan bir necha kishi bordik. Afsuski, to’yga bir soatlar kechikib bordik. Shunda qadrdonimiz bizni to’yxonaga emas, uyiga boshlab bordi. Aytishicha, to’yxonada band qilingan sanoqli joylar bandligi, bizni qo’shimcha joy tayyorlatib ichkariga kiritadigan bo’lsa, to’yxona egasiga va o’ziga ham juda katta miqdorda jarima solinishi va davlat ishidan ozod etilishini aytib, uzr so’ragandi. Bu gapni eshitib, biz xafa bo’lmadik, belgilangan tartibga kattayu kichik, rahbarlar ham birdek amal qilishini ko’rib, havas qildik.

Bugun biz ham yuz yillik muammomiz – to’y va ma’rakalarimizni kamchiqim qilib o’tkazishni astoydil yo’lga qo’ymochi ekanmiz, qo’llaniladigan ta’sir choralarini biroq kuchaytirishimiz, bu borada nazoratni davlat organlari o’z zimmasiga olishi lozim.



O’ktam SAIDMURODOV,
xalq deputatlari viloyat Kengashi
deputati.

Shu yil 21-avgustda Prezidentimiz sud faoliyatiga oid ikkita muhim farmon imzolagan edi. Bu farmonlar sud tizimida chinakam yangi davrni boshlab berdi. 24-noyabr kuni Prezidentimiz yana bir muhim farmonga imzo chekdi. “Sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmon qator muhim masalalarni qamrab olgan.

SUD

MUSTAQILLIGI

va shaffofligi yo’lida

Mamlakatimizda sudyalari hamjamiyati organlarining rolini tubdan oshirish, ochiq va shaffof tartib-taomillar asosida sud organlarini malakali kadrlar bilan to’ldirish, aholining sud himoyasida bo’lish huquqini samarali ta’minlash, sud mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, “O’zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq qabul qilingan ushbu farmon ham tarixiy ahamiyatga ega.

Farmonning nomlanishidayoq uchta ustivor vazifa belgilangan:

- sudyalari hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi;
 - ochiqqligini oshirish;
 - sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish.
- Farmonda ana shu uchta maqsadni amalga oshirish uchun aniq vazifalar belgilab berilgan.

Sudyalar korpusini shakllantirish tartibini takomillashtirib, sudyalari hamjamiyati organlari roli oshiriladi. Ochiqlik ta’minlanib, sudyalikka nomzodlarni tanlashning shaffof tartibi joriy etiladi.

Ilgari sudyalari besh yillik muddatga tayinlanardi. Bir yoki ikki muddat ishlagan tajribali sudyalari ham qaysidir xatosi uchun keyingi muddatga o’ta olmasligi mumkin edi. Shu tariqa ko’plab tajribali, bilimli, eng muhimi, to’laqonli shakllangan sudyalari tizimdan chiqib ketardi. Bu esa kadrlar ko’nimsligiga sabab bo’lib, sudyalari korpusining salohiyatiga salbiy ta’sir ko’rsatardi.

Sud-huquq islohotlarining keyingi bosqichida avval besh yillik, keyin o’n yil, undan keyin muddatsiz davrga tayinlash (saylash) joriy qilindi. Bu amaliyot o’zini to’liq oqladi. Endi yanada mukammal bosqichga o’tishning vaqti keldi. Sudyalarni navbatdagi o’n yillik muddatga tayinlash (saylash) tartibi bekor qililib, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni dastlab besh yil muddatga, keyinchalik muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tartibi belgilandi.

Shu soha faxriysi sifatida aytishim mumkinki, besh yillik muddatda sudyaning kimligi, salohiyati aniq bo’ladi. Bu sohaga begonalar shu muddatda ayon bo’ladi.

Bilimli, o’z ustida doimo ishlaydigan, halol va adolatlil sudyalarni muddatsiz davrga tayinlash ularning sevgan kasbiga fidoyiligi va sadoqatini oshiradi.

Tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislari va ularning o’rinbosarlari lavozimlariga ochiq tanlov asosida tanlanishi juda muhim yangilik deb bilaman. Ko’p yillar viloyat sudi raisi lavozimida ishlagan inson sifatida bilamanki, sudya o’z ishiniing puxta bilimdoni bo’lishi, lekin unda rahbarlik qobiliyati bo’lmasiligi mumkin. Ba’zida ana shunday sudyalarning sud raisi bo’lib qolishi ishimizga salbiy ta’sir qilgani bor gap. Tuman-shahar sudlariga ochiq tanlov asosida tashkilotchi, shijoatli, liderlik qobiliyatiga ega sudyalari tanlansa, nur ustiga a’lo nur bo’ladi.

Sudyaning kasbiy faoliyatini baholashda “halollik”, “kasbiy layoqatlilik” va “sudyalik odobi qoidalariga rioya etish” talablarining aniq mezonlarining qonun darajasida belgilanishi ham tahsinga loyiq.

Sudyalar oliy kengashning doimiy asosda faoliyat yurituvchi sudyalari lavozimiga kamida 7 yil ishlagan sudyalari nomzodi ko’rsatilishi kengashning nufuzini oshirishga hissa qo’shadi.

Ayniqsa, kengashning doimiy tarkibiga Oliy sud-dan ikki nafar, viloyat darajasidagi sudlardan yetti nafar, tumanlararo, tuman, shahar sudlaridan to’rt nafar sudya kiritilishi turli darajadagi sudlar manfaati va tajribasi teng ishtirok etishini ta’minlaydi.

Farmon bilan kengash raisiga qo’shimcha vakolatlar berildi. Agar intizomiy ish asossiz tugatilgan yoki jazo no-to’g’ri qo’llangan deb topilsa, u malaka hay’ati qarorlarini qayta ko’rib chiqishni talab qilishi mumkin. Shuningdek, kengashning tuzilmasi va shtat jadvalini belgilangan shtat birliklari doirasida mustaqil tasdiqlaydi.

Sudyalar oliy kengashining rasmiy veb-saytida sud tizimida mavjud bo’sh rahbarlik va yuqori turuvchi sudyalik lavozimlariga hamda nomzodlarni tanlash hamda tayinlash bo’yicha barcha bosqichlarga oid ma’lumotlar e’lon qilib borilishi ochiqlik darajasini oshirish yo’lida dadil qadamlar, deb bilaman.

Farmondagi e’tiborli jihat – sudyalari va sud xodimlari kunini belgilash bo’ldi. Hamma kasbdagilarining bayrami bor, negadir sud organlari kuni yo’q edi. Sud tizimi vakillari Konstitutsiya kunini ramziy bayram sifatida nishonlardik. Endi o’zimizning ham kunimiz, o’z bayramimiz bo’ladi.

Sudyaga nisbatan intizomiy ish ko’rib chiqishda uning himoyaga bo’lgan huquqini taqdim etish, intizomiy jazo sifatida quyi sudyalik lavozimiga o’tkazish chorasini joriy etish, intizomiy jazo amalda bo’lgan vaqtda yuqori sudyalik lavozimiga tavsiya etilmaslik masalalari ko’p savollarga yechim topadi va amaliyotdagi bo’shliqni tartibga soladi.

Sudyalar korpusida gender tenglikni ta’minlash, odil sudlov akademiyasida xotin-qizlar uchun kvota belgilash, O’zbekiston ayol sudyalari assotsiatsiyasini tashkil etish ayol sudyalari ko’payishi uchun aniq chora-tadbirlardir.

Katta mehnat tajribasiga hamda ilmiy salohiyatga ega sudyalari odil sudlov akademiyasiga professor-o’qituvchi lavozimiga tayinlanganda akademik yadagi faoliyati tugagandan so’ng uning muqaddam ishlagan sudyalik lavozimida ishni davom ettirishi yoki avvalgisiga teng boshqa sudyalik lavozimiga o’tkazilishi adolatlil yechim bo’ldi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur farmon odil sudlovni amalga oshirish orqali xalqni rozi qilishga xizmat qiladi.

Zoir ALIYEV,
sud faxriysi.

Bugungi kunda dunyo davlatlarida konstitutsiya normalarining to’g’ri va keng qo’llanilishi hamda huquqiy munosabatlarda barcha normativ-huquqiy hujjatlarning konstitutsiyaga muvofiqqligini ta’minlash bo’yicha nazorat tizimi institutsional jihatdan turlicha yo’lga qo’yilgan. Xususan, ayrim davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat konstitutsiyaviy sudlar, oliy sudlar va konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus organlar tomonidan amalga oshirilmoqda. AQSh, Kanada, Avstraliya kabi davlatlarda konstitutsiyaviy nazorat Oliy sud rahbarligidagi umumyurisdiksiya sudlari tomonidan olib borilsa, Fransiyada bu vazifa Konstitutsiyaviy kengash zimmasiga yuklangan.

Mamlakatimizda konstitutsiyaviy nazorat O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 27-apreldagi Konstitutsiyaviy qonuniga asosan, O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi tomonidan amalga oshiriladi. MDH davlatlarida ham konstitutsiyaviy nazoratni konstitutsiyaviy sudlar olib boradi.

Umuman olganda, amaliyotda, konstitutsiyaviy nazoratni olib borishning asosan ikki turi shakllangan bo’lib, AQSh modeli (Oliy sud va umumyurisdiksiya sudlari doirasida) va kontinental (Avstriya) modeli shaklida ish yuritiladi.

O’zbekistonda konstitutsiyaviy nazorat Konstitutsiyaviy sud tomonidan olib borilar ekan, ushbu faoliyatni tartibga soluvchi qonun uch marta yangi tahrirda qabul qilindi. Xususan, 2021-yilda qabul qilingan qonunda Konstitutsiyaviy sudning faoliyatini

1

2

3

4

KONSTITUTSIYAVIY

tartibga soluvchi navbatdagi yangi normalar amaliyotga kiritildi. Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari “aniqlash”, “xulosa berish”, “sharh berish”, “ko’rib chiqish” va “axborot taqdim etish”dan iboratligi oydinlashdi. Bu vakolatlar qonunning 4-moddasi mazmunidan kelib chiqadi. Mazkur moddaning 1 va 2-bandlariga ko’ra, Konstitutsiyaviy sud:

1) O’zbekiston Respublikasi qonunlarining va O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O’zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqqligini aniqlaydi;

2) O’zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi qonunlari O’zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O’zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqqligini aniqlaydi.

Shu vakolatlar O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 133-moddasining birinchi qismi 1-2-bandlarida ham ko’rsatilgan.

Nazarimda, aynan ushbu “vakolatlar” Konstitutsiyaviy sudning real vakolatlarining noaniq holda qonunchilikda saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Negaki “aniqlash” vakolati, aslida, nihoyatda umumiy va noaniq jumla bo’lib, uning natijasi borasidagi huquqiy normalar qonunchilikda ochiqqligicha qolgan,

deyish mumkin. Vaholanki, ushbu toifadagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan bog’liq masalalar bo’yicha xorij davlatlarining Konstitutsiyaviy sudlarining vakolatlari qonunchilikda aniq qilib belgilab qo’yilgan.

Masalan, “Qozog’iston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to’g’risida”gi qonuni 23-moddasiga ko’ra, “Konstitutsiyaviy Sud quyidagilarning Qozog’iston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqqligini ko’rib chiqadi:

1. Qozog’iston Respublikasi Parlamenti tomonidan qabul qilingan, biroq Qozog’iston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qonunlar;
2. Qozog’iston Respublikasi Parlamenti va uning palatalari tomonidan qabul qilingan qarorlar;
3. Qozog’iston Respublikasining xalqaro shartnomalari ular ratifikatsiya qilingunga qadar”.

Ya’ni, Konstitutsiyaviy sudlarning Qozog’istonda ushbu toifadagi ishlarni “ko’rib chiqishi” aniq ko’rsatilgan. Biroq milliy qonunchiligimizda Konstitutsiyaviy sud mazkur toifadagi ishlar bo’yicha tegishli hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqqligini “aniqlashi” ko’rsatilgan. Ya’ni, nazariy jihatdan, ushbu holatda, milliy qonunchiligimizda Konstitutsiyaviy sudning yuqorida qayd etilgan hujjatlarni o’rganish natijalari bo’yicha qonun doirasida ta’sirchan chora ko’rish vakolatlari belgilanmagan.

Bu esa konstitutsiyaviy nazorat institutining to’laqonli va samarali ishlashini ta’minlashga imkon bermasligi mumkin.

Shu bilan birgalikda, yana bir holatga e’tibor qaratish lozim.

Xususan, Konstitutsiyamizning 15-moddasi birinchi va ikkinchi qismlariga ko’ra, “O’zbekiston Respublikasida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so’zsiz tan olinadi.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to’g’ridan-to’g’ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.”

Ya’ni, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar ham Bosh qomusimizni o’z faoliyatlarida bevosita qo’llashlari lozim. Bu qoida O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Odil sudlovni amalga oshirishda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to’g’ridan-to’g’ri qo’llashning ayrim masalalari to’g’risida”gi qarorida ham mustahkamlangan.

Konstitutsiyamizning 133-moddasi birinchi qismi 6-bandiga ko’ra, Konstitutsiyaviy sud O’zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo’llanilishi lozim bo’lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqqligi to’g’risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko’rib chiqadi.

Ayni shu vakolat O’RQ-687-sonli Qonunning 4-moddasi birinchi qismi 5-bandida va O’zbekiston Respublikasining 2021-yil 28-iyuldagi “Sudlar to’g’risida”gi Qonunida ham mustahkamlangan. Jumladan, mazkur qonunning 30-moddasi birinchi qismi 11-xatboshisiga ko’ra, O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi O’zbekiston Respublikasining

Viloyat markazidan 150 kilometr olisda, Qo'shrabotning dashtida, bir paytlar infratuzilmasi og'ir bo'lgan, umuman, imkoniyatlari cheklangan Chimmos mahallasi bugun namunali maskanga aylanib bormoqda. Uch mingdan ziyod aholi yashaydigan mahallada odamlarning kayfiyati o'zgargan va yoshlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchi oshgan.

Chimmos mahallasidagi hokim yordamchisi Bobomurod Qarshiyevning ta'kidlashicha, hudud uzumchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, 20 dan ortiq tadbirkor faoliyat yuritmoqda. Bu yil 90 nafar ishsiz fuqaroning 50 nafarga yaqini ishga joylashtirilgan, qolganlariga esa 650 million so'm imtiyozli kredit berilib, tadbirkorlikni boshlashiga ko'maklashilgan.

— Maqtanish emas, hozir mahallamizda ishsiz fuqaro deyarli yo'q, — deydi u. — Mehnatga layoqatli aholining asosiy qismi korxona va tashkilotlarda ishlaydi. Shu bilan birga, tadbirkorlik bilan shug'ullanadi, ikki yuzdan ziyod kishi uzumchilik, uch yuzga yaqini chorvachilik bilan band. Mavsumiy ishlarda yuzdan ortiq fuqaro mehnat qilsa, yuzdan ziyod ayol tikuvchilik bilan shug'ullanadi.

Shu yil may oyida mahallada yoshlarning IT va xorijiy tillarni o'rganishi uchun barcha sharoitga ega "IT shaharcha" tashkil etildi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 15-maydagi qaroriga ko'ra, 2022-yilda Nurobod tumanining Oqsoy mahallasida respublikada birinchi marta ochilgan "IT-Village" konsepsiyasi asosida bunyod etilgan ushbu maskan 35 sotix maydonni egallagan bo'lib, zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan.

Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat boshqarmasi tomonidan ushbu majmuaga press-tur tashkil etildi.

- Markazimizda bir vaqtning o'zida 70 nafarga

Chimmosdagi "IT shaharcha"



yaqin yosh ta'lim olish imkoniyatiga ega, - deydi "IT shaharcha" ish boshqaruvchisi Jamshid Botirov. - Ta'lim jarayoni xorij texnologiyalari asosida tashkil etilgan bo'lib, 6 nafar mutaxassis 216 nafar yoshga dasturlash, grafik dizayn, kompyuter savodxonligi hamda ingliz va boshqa xorijiy tillarni bepul o'rgatmoqda. Axborot texnologiyalari markazimizga o'quvchilar 12 yoshdan qabul qilinadi va sinov mudatidan muvaffaqiyatli o'tgan iqtidorli o'quvchilar kurslarga saralanadi. Bugunga qadar 60 nafar o'quvchi kompyuter savodxonligi kursini muvaffaqiyatli tugatdi va yil oxirigacha yana 50 nafardan ziyod bitiruvchiga sertifikat topshiriladi.

— Zamonaviy "IT shaharcha" ishga tushgach, bu yerda ingliz tili kursida o'qib, ikki oyda sertifikatga ega bo'ldim, — deydi tumanidagi 64-umumta'lim maktabining 11-sinf o'quvchisi Shamshodbek Soliyev. — Bu menga yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Endi Toshkentdagi jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga o'qishga kirib, bilimimni yanada mustahkamlayman va kelajakda yurtimiz ravnagiga munosib hissa qo'shish uchun intilishdan to'xtamayman.

Press-tur davomida "IT shaharcha"da kompyuter savodxonligi kursini muvaffaqiyatli tugatgan ilk bitiruvchilarga sertifikatlar topshirildi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Xalqimiz orzu-iintilishlari ifodasi

Lotincha «constitutio» so'zidan olingan Konstitutsiya «tuzilish», «o'rnatish» ma'nolarini bildiradi. U alohida yuridik xususiyatlarga ega bo'lgan yagona siyosiy-huquqiy hujjat bo'lib, o'z mohiyati va yuridik tabiatiga ko'ra boshqa huquqiy hujjatlardan bir qator muhim jihatlar bilan ajralib turadi.

Jumladan, Konstitutsiya o'z mazmuni va ijtimoiy vazifasiga ko'ra davlatning mohiyatini ta'riflovchi, uning tashkiliy tuzilishini ifodalovchi, davlat siyosatining asoslarini belgilovchi hujjat sifatida gavdalanadi.

Asosiy qonunimizning 1-moddasida "O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligi belgilangan.

Mamlakatimiz tarixida birinchi marta o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan va har qanday davlatning rivojlanish yo'lini belgilab beruvchi oliy qonun hujjati referendumdada bevosita xalq tomonidan qabul qilinganini alohida ta'kilash lozim. Zero, u jadal sur'atlarda rivojlanib, aholi soni jihatdan o'sib borayotgan Yangi O'zbekistonning barcha ijtimoiy va siyosiy jihatlarini to'liq qamrab olganligi, har bir sohani yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilangani, unda inson

qadrining birinchi o'ringa qo'yilgani yanada ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Asosiy qonunimizda belgilangan bu tamoyildan tashqari unga "O'zbekiston — huquqiy davlat" degan g'oya singdirilgan. Zotan, huquqiy davlatda barcha sohalarida, eng avvalo, qonuniy asoslarga tayanilgan holda ish yuritiladi. Bu qonuniy asoslar esa Bosh qomusimizdan boshlanadi va o'z navbatida, uning o'zi buning kafili bo'lib xizmat qiladi.

Gap, inson huquqi va uning erkinliklari Konstitutsiyamizda to'la kafolatlangani haqida ketarkan, yaqin o'tmishdagi bir holatni eslash o'rinni. Chunki ilgari sudlanganlik olib tashlangandan yoki sudlanganlik holati

tugallangandan so'ng ushbu fakt shu shaxsning o'ziga, uning hayotiga ta'sir etishi mumkin bo'lmagan sharoitda, eng ajablanarlisi, uning oila a'zolari, yaqin qarindoshlari hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi uchrab turar edi.

Shaxsning sudlangani uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi to'g'risidagi norma xalqni qo'rquvda ushlab turishga mo'ljallangan. Yoshlarni o'z orzu-ijtimoiyat-davlat paradigmasiga asoslanganligi, unda barcha toifalarning, hatto jinoyat sodir etgan shaxslarning huquq va manfaatlarini aks etganligi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Umuman, Bosh qomusimiz "inson-jamiyat-davlat" paradigmasiga asoslanganligi, unda barcha toifalarning, hatto jinoyat sodir etgan shaxslarning huquq va manfaatlarini aks etganligi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Furqat ANAROV,
viloyat sudi fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati sudyasi.

Samarqand shahrida viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi tashabbusi bilan "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida viloyatdagi maxsus kasbiy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

O'quvchi-yoshlar imtiyozlardan bahramand bo'lishdi

Viloyat prokuraturasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda o'rta maxsus o'quv yurtlarining nogironligi bo'lgan 74 nafar o'quvchilari va ularning o'qituvchilari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar o'quvchi-yoshlarga davlatimiz tomonidan imtiyoz va imkoniyatlar yaratilayotgani, ular o'zlarini yolg'iz his etmasligi, zarur bilim va kasb-hunarlarini egallab, tengdoshlari qatori soha va tarmoqlarda mehnat qilishi, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligi borasida o'z fikrlarini bildirishdi.

Bir piyola choy ustida davom etgan tadbirda namoyish etilgan bayramona konsert va shou dasturi yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

D.TO'XTAYEV.

Bosh qomusimiz qabul qilinganining 33 yilligi oldidan



NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH — DAVR TALABI



Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish to'g'risida, shuningdek, sudlar tashabbusi bilan kiritilgan muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat kiritish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumiga taqdimnoma kiritadi.

Konstitutsiyaning 22-moddasi ikkinchi qismi 4-xatboshisiga ko'ra esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga rasmiy sharh berish masalalari yuzasidan murojaat kiritish, shuningdek, muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risidagi sudlar tashabbusi bilan kiritilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat kiritish haqidagi taqdimnomasini ko'rib chiqadi.

Soddaroq qilib aytganda, ushbu norma sudlarda ishini ko'rish davomida u yoki bu normalarning Konstitutsiyaga mos yoki mos emasligini aniqlash zarurati bo'lganda, Oliy sud orqali bu masalada Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. Chunki sudyalari konstitutsiyaga zid bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llashni masala va bevosita amal qiladi.

Bunday holatda sudlar ish yuritishni to'xtatib turishi kerak bo'ladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi 101-moddasi 1-bandi, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi 116-moddasi 4-bandi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi 99-moddasi 1-bandida sudlar ushbu holatda ish yuritishni to'xtatib turishi majburiyat sifatida ko'rsatilgan.

Normalarning konstitutsiyaga muvofiq qo'llanilishini ta'minlash maqsadida sud(ya)larning Oliy sud orqali Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi va ushbu sud tomonidan mazkur masala bo'yicha yakuniy qaror qabul qilinguniga qadar ish yuritishning to'xtatib turilishi, bizning nazrimizda, juda chuqur o'ylan-gan va to'g'ri amaliyotdir. Shu bilan birgalikda, ushbu normalar zahirida, sudlardagi ushbu (ehtimoliy)

murojaatlarning Oliy sud tomonidan tahlil qilingan, o'rganilgan va makzalashtirilgan tarzda Konstitutsiyaviy sudga yetkazilishi maqsad qilinganligini tushunish mumkin.

Ammo qayd etish lozimki, ayrim mutaxassislar tomonidan konstitutsiya normalarini qo'llash bo'yicha shakllangan mazkur tartibni yanada soddalashtirishga oid fikrlar bildirilmoqda. Xususan, bevosita sudyalarning o'zi tomonidan Konstitutsiyaviy sudga ushbu masalada yozma murojaat qilish vakolatining berilishi orqali, birinchidan, huquqiy amaliyotni qo'llovchi sudlar va Konstitutsiyaviy sud o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muloqot paydo bo'ladi, ikkinchidan, sud ishlarini to'xtatib turish muddatlari qisqarishiga erishilishi fikri ilgari surilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, respublikamizda konstitutsiyaviy nazoratning normativ-huquqiy va institutsional asoslari tadririy ravishda rivojlanib bormoqda.

Shu bilan birgalikda, bu borada Konstitutsiyaviy sudning ayrim vakolatlarini qonun darajasida takomillashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ushbu maqsadga erishish uchun esa quyidagilar taklif qilinadi:

Birinchidan, Konstitutsiyaviy sudning "aniqlash" vakolatini Konstitutsiyamizning 133-moddasi birinchi qismi 1-2-bandlarida va Qonunning 4-moddasi 1-2-bandlarida "hal qilish" tarzida bayon qilish orqali mazkur sudning konstitutsiyaviy tartibni, qonun ustuvorligini ta'minlashdagi ta'sirchanligini yanada oshirish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, sud(ya)larning muayyan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ulardagi normalarning Konstitutsiyaga muvofiq yoki muvofiq emasligi bo'yicha Konstitutsiyaviy sudga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilishning huquqiy imkoniyatlarini yaratish.

Nurmuhammadxon ABULSAIDOV,
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi iqtisodiy huquq yo'nalishi tinglovchisi.

Elyor QURBONOV

Beshafqat o'lim ajoyib inson, iqtisod sohasining yetuk bilimdoni Elyor Qurbonovni oramizdan olib ketdi.

E.Qurbonov 1983-yilda Ishtixon tumanida tug'ilgan. Samarqand qishloq xo'jalik institutini bitirib, faoliyatini Samarqand kompyuter texnologiyalari va gidromelioratsiya kollejida hisobxona bosh hisobchisi sifatida boshlagan.

2014-2017-yillarda viloyat nazorat taftish boshqarmasining Bulung'ur, Urgut, Jomboy tumanlaridagi hisobchi-taftishchisi bo'lib mehnat qildi.

So'ngra davlat moliyaviy nazorat boshqarmasi bosh hisobchisi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlash maqsadli jamg'armasi mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish bo'yicha bosh nazoratchi-taftishchisi bo'lib ishladi.

Viloyat davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi budget qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish bo'limi bosh nazoratchi-taftishchisi vazifasida ishlaganda budget mablag'laridan to'g'ri va samarali foydalanishda o'zining chuqur bilimi va tajribasini ko'rsatdi.

U moliyaviy nazorat sohasiga kirib kelayotgan yoshlarga sohaning sir-asrorlarini qunt bilan o'rgatib, ulardan ish jarayonida budget mablag'laridan oqilona foydalanishda qat'iyatlilik ko'rsatishni talab etardi.

E.Qurbonov 2024-yildan buyon davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi viloyat boshqarmasining iqtisodiy va boshqa sohalarida budget mablag'laridan maqsadli foydalanishni nazorat qilish bo'limini boshqarib kelayotgan edi.

Yetuk iqtisodchi, ezgu fazilatlar sohibi Elyor Qurbonovning porloq xotirasi qalbmizda yashaydi.

DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATI
INSPEKSIYASI VILOYAT BOSHQARMASI
JAMOASI.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR
MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Axmedov Baxodir Botirovichga (2025-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Ibragimova Uglijonga (2019-yil 12-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasida marhum Xisbulina Floyra Sibagatovna (2024-yil 11-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mustayev Azizbek Faxriddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 50/34.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Eshonkulova Saboatga (2022-yil 26-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahar mahallasi.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasida marhum Eshonkulov Radjabga (2022-yil 10-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shomurodov Anvar Salimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani O'rta shahar mahallasi.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Bokiye Vaxobjon Xamrokvulovichga (2025-yil 30-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasida marhum Azimboyev Furqat Nasimovichga (2025-yil 4-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mamatqulov Otobek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Xalmuratova Ochiltashga (2017-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasida marhum Kurbanov Elmurod Artikovichga (2022-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hakimova Igora Hikmatovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Past Darg'om tumani Juma shaharchasi, Nodirabegim ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilfruz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Kuziyev Dilorboz Bazarboz Nafasovichga (2024-yil 12-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilfruz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlo

ko'chasi, 7-uy.

BEKOR QILINADI!

Samarqand shahridagi "NARPAY ZAMIN SAVDO" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 301930511) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Sotuvchi Ayazov Jasur Numonovich va sotib oluvchi Asrorov Shavkat Axrorovichlar o'rtasida Samarqand viloyati Samarqand tumani Quyi Turkman mahallasi hududida joylashgan "Issiqxona" binosi uchun "Best realtor" MCHJ Samarqand mintaqaviy filialida 2019-yil 25-dekabrda o'tkazilgan to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar natijasida tuzilgan 156-sonli kelishuv bayonnomasi va ushbu bayonnomaga asosida tuzilgan ko'chmas mulkning oldi-sotdi tashnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

SOG'LOM OILA –
JAMIYAT USTUNI

Ota-ona boladagi
iqtidorni qo'llab-
quvvatlasa, u tez orada
natija beradi

“ZARAFSHON”ning
maxsus sahifasi

Uydagi janjallar bola
ruhiyatiga soya soladi

Oilada tinchlik bo'lmasa, bolalikning toti yo'qoladi. Kattalarning janjali, baqiriq yoki sovuq so'zlar farzand ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Ko'p hollarda ota-ona buni sezmaydi, lekin bola yuragi bilan his qiladi, yuragida qo'rquv, ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Masalan, kichik Aziza har safar ota-onasi tortishganida qo'rqib, o'yinchoqlarini yig'ishtirib burchakka kirib oladi. U nima bo'layotganini to'liq tushunmasa ham, onasining yig'laganini, dadasining baland ovozini yuragi bilan sezadi. Shu holatlar ortidan u bog'chada ham tinch o'ynamay, tez jahli chiqadigan, ko'p yig'laydigan bo'lib qoladi.

Psixologlarning aytishicha, uyda tinchlik bo'lsa, u o'zini himoyalangandek sezadi, ishonch bilan ulg'ayadi. Ammo tortishuv, nizo yoki salbiy ohang ko'p bo'lgan joyda bola tajovuzkorlik yoki asabiylikka odatlanadi.

Yana bir misol, ota-onasi tez-tez janjallashgani sabab Jasurning darsga e'tibori susaydi. Aslida esa u kechasi onasi yig'laganini eshitib uxlamagan, ertalab maktabga charchagan holda kelgan.


Har bir ota-ona hayotda bahslar bo'lishi tabiiyigini biladi. Ammo buni farzandlar oldida emas, tinch joyda hal etish lozimligini anglamaydi. Bola uchun eng katta dars - ota-onasining o'zaro muomalasi. Agar u uydagi kattalarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishini ko'rsa, o'zi ham shunday bo'lib ulg'ayadi.

Masalan, ota-onasi bir masalada kelisha olmagan, lekin farzandi oldida ovozini ko'tarmay, keyin tinchgina suhbatda muhokama qilgan oilalarda bolalar muvozanatli, ishonchli va xotirjam bo'lib ulg'ayadi. Bu ularning ruhiy barqarorligiga katta hissa qo'shadi.

Farzand - bizning aksimiz. U so'zlarimizdan ko'ra, harakatlarimizdan ko'proq saboq oladi. Agar biz jahlni bosishni, muammoni sokin hal qilishni bilsak, u ham buni o'rganadi. Tinchlik bor joyda mehr ham, ishonch ham bo'ladi.

Uydagi osoyishtalik - bola ruhiy salomatligining eng muhim kafolati. Farzandlarimiz tinch, mehrga to'la uyda ulg'aysa, ertangi kunimiz sokin, sog'lom va baxtli bo'ladi.

Malika ABRUYEVA.

ChatGPT
VRACH
BO'LA OLMAYDI

Keyingi paytda ko'p vrachlar ham, bemorlar ham ChatGPTdan tibbiy savollar so'rab ko'ryapti.

Hamma hayron:

“Neuron tarmoqlar USMLE” (AQShda tibbiyot tizimida ishlash uchun lozim bo'ladigan murakkab imtihon)ni a'lo darajada topshirayotgan bo'lsa, nima uchun vrachning o'rini bosolmaydi?” Javob oddiy:

Tibbiy imtihon — bu test.**Haqiqiy tibbiyot — bu noaniqlik.**

Bir misol, siz vrachga kelasiz va “Mana bu yerim og'riyapti. Kecha kechqurun osh yegan edim...” deganingizdan so'ng vrach siz bilan gaplashadi, kuzatadi, tahlil qiladi.

ChatGPT esa shunday vaziyatda hali ham “internet markazida yashaydi”.

Yaqinda juda qiziq tadqiqot natijalari e'lon qilindi. Olimlar 10 ta eng kuchli modelni (ChatGPT, Claude, DeepSeek, Gemini kabi) 750 ta real klinik vaziyat bilan tajriba-sinovdan o'tkazishdi. Natijalar esa kutilgandek emas: hech bir model tajribali vrach darajasida natija ko'rsata olmadi.

XULOSA

TIBBIYOTDAN XABARDORLIK VA KLINIK MUSHOHADA
HAMDA FIKRLASH — IKKI XIL KASB.

ChatGPT - bu har qanday mutaxassisning yordamchisi bo'la olishi mumkin. Lekin vrachlik - ulkan mas'uliyat, tajriba va inson taqdirini hal qila olishi mumkin bo'lgan noaniqliklarni boshqarishdek murakkab vazifalardan iborat. ChatGPT vrachning o'rini bosa olmaydi.



Gulzoda NEGMATOVA,

Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filiali bosh vrachi.

HARAKAT –

stressni tabiiy ravishda pasaytirishning eng samarali usullaridan biri.

AMALIYOT:

Kuniga 30 daqiqalik o'rtacha intensivlikdagi mashqlar (tez yurish, yugurish, velosiped).

ILMIY ASOS:

Jismoniy mashqlar nafaqat endorfinlar (yaxshi kayfiyat gormonlari) ishlab chiqarilishini oshiradi, balki stress vaqtida to'plangan ortiqcha energiya va gormonlarni "yoqib yuborishga" yordam beradi. Bu miyaga tinchlanish vaqti kelgani haqida signal beradi.



Kechasi qatiq iching!

Kefirdagi triptofan melatonin gormoni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu esa tabiiy uxlatadigan vosita bo'lib, dorisiz tinch uxlashga yordam beradi. Ichaklar “ta'mirlash” rejimiga o'tadi.

Tunda probiotiklar eng faol bo'ladi, ichak mikroflorasi va mushaklar tiklanadi, immunitet mustahkamlanadi. Kefirdagi kazein – sekin hazm bo'ladigan oqsil, u butun tun davomida mushaklarni oziqlantirib turadi. Qonda shakar darajasi barqaror bo'ladi, shuning uchun tun yarmida ochlik yoki charchoq hissi paydo bo'lmaydi.

Kefirni uxlashdan taxminan bir soat oldin iching. Natija – tinch uyqu, yengil uyg'onish va quvvatga to'la yangi kun.

Nega bosh kiyim
kiymaganlar
ko'proq tumovga
chalinadi?

Sovuq mavsumda bosh kiyim kiymagan odamlar orasida gripp, angina va shamollash holatlari ko'p uchraydi. Sababi, fiziologik – inson tanasidagi issiqlikning 10-15 foizi bosh orqali chiqadi.

Sovuq havo ta'sirida bosh terisi va yuzdagi qon tomirlari torayadi, bu esa qon aylanishining sekinlashishiga olib keladi. Natijada bosh, quloq va burun atrofidagi to'qimalar yetarli darajada qon bilan ta'minlanmaydi, harorat pasayadi. Shilliq qavatning himoya funksiyasi, ya'ni virus va bakteriyalarni tutib qolish qobiliyati susayadi. Demak, sovuq havoda bosh kiyim kiymagan odamlarning gripp, shamollash, rinit va angina kabi nafas yo'llari kasalliklariga chalinish ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Havo harorati 5 darajadan past bo'lganda albatta, bosh kiyim kiyish lozim.

Bolalikdan to'g'ri ovqatlanish
semizlik, qandli diabet va yurak–qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi

Bolalik davri organizmning jadal o'sishi va rivojlanish pallasini hisoblanadi. Shu sababli to'g'ri ovqatlanish odatlari sog'lom turmush tarzining eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Bola iste'mol qilayotgan mahsulotlarning sifati, miqdori va muntazamligi uning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, muvozanatli ovqatlanish bolalarda immun tizimi mustahkamlanishiga yordam beradi. Vitaminlar, oqsillar, mineral moddalar yetarli bo'lmasa, organizm infeksiyalarga tezroq chaliladi. Ayniqsa, temir, D vitamini va kaltsiy yetishmovchiligi rivojlantirishda kechikish, suyaklarning zaiflashishi va tez charchash kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ikkinchidan, to'g'ri ovqatlanish aqliy faoliyati uchun ham juda muhim. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, sog'lom nonushta qiladigan bolalar maktabda yaxshiroq diqqat jamlaydi, xotirasi faol bo'ladi va o'quv jarayonida yuqori natijalarga erishadi. Shakarli ichimliklar va fast-fud mahsulotlarini tez-tez iste'mol qilish esa e'tiborning pasayishi va ortiqcha vaznga sabab bo'ladi.

Uchinchidan, erta yoshdan shakllangan ovqatlanish odatlari katta yoshlarda ham saqlanib qoladi. Agar bola sabzavot, meva, don mahsulotlari, foydali yog'lar va sut mahsulotlariga o'rganib o'ssa, kelajakda unda semizlik, qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklari xavfi kamayadi. Aksincha, zararli taomlarga ko'nikish

sog'liq uchun uzoq muddatli xavf tug'diradi.

Bola sog'lom odatlarni oilada ko'radi va o'rganadi. Shuning uchun ota-onalar o'z namunalarini bilan to'g'ri, muntazam ovqatlanish va choy-shakar iste'molini cheklashni targ'ib qilishi muhimdir. Uy sharoitida tayyorlangan tabiiy ovqatlar, birga ovqatlanish va turli taomlarni sinab ko'rish bolalarda sog'lom odatlarni shakllantirishning eng samarali yo'llaridir.

Xulosa qilib aytganda, bolalardagi ovqatlanish odatlari nafaqat ularning bugungi sog'lig'i, balki kelajakdagi turmush tarzi va salomatligi uchun ham muhim poydevor yaratadi. Shu sababli sog'lom ovqatlanishni o'rgatish oilada va maktabda eng ustuvor vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Zilola XOLMURODOVA,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti pediatriya kafedrasi assistenti.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida
2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438.
13 798 nusxada chop etildi. Buyurtma 563. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:
soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi:
soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun
QR-kodini telefoningiz
orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda